



## XUSUSIY SEKTORLAR VA IQTISODIY TARAQQIYOT

*Zaripova Mushtariybonu.*

*Termiz iqtisodiyot va servis Universiteti  
boshlang'ich ta'lim 1-bosqich talabasi*

***Annotatsiya :** Mashhur maqolada hususiy sektorlarda va iqtisodiy taraqqiyot bir-biriga uzviy bog'liq tushunchalar bo'lib har birining rivoji jamiyat va mamlakat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Bugungi globallashgan dunyoda iqtisodiy , ijtimoiy va madaniy taraqqiyotga aralashishda xususiy sektor va institutlarning o'rni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu munosabatni chuqurroq tushunish uchun xususiy sektor va ularning taraqqiyotga qanday hissa qo'shishi haqida yuritamiz.*

***Kalit so'zlar:** xususiy sektorlar, Hamkorlik , Globallashuv , Sektorning asosiy yo'nalishlari, qayta ishlash siyosati , turizm , investitsiyalar, Termiz , Afgoniston .*

Xususiy sektorlar mohiyati va ularning iqtisodiy funksiyalari :

Xususiy sektor deganda davlat mulkidan farqli ravishda shaxsiy yoki korporativ manfaatlar asosida tashkil etilgan tashkilotlar va korxonalar yig'indisidir. Ular odatda odatda iqtisodiy faolyatning asosiy ishtirokchilaridan biri bo'lib tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiyalarni joriy etish va jamiyatga yangi xizmatlarni taqdim etish va jamiyatga yangi xizmatlarni taqdim etish orqali taraqqiyotga ta'sir ko'rsatadi

Ularning asosiy vazifalari :

1. Ish o'rinlari yaratish xususiy sektor ko'pincha iqtisodiy faolyatning asosiy generatori bo'lib aholining bandligini taminlaydi.

2. Investitsiyalarni jalb qilish xususiy korxonalar ichki va tashqi investitsiyalarni o'ziga jalb qilib iqtisodiyotda yangi tarmoqlarni rivojlantirishga yordam beradi.



3. Investitsiyalarni rivojlantirish xususiy sektor yangi texnologiyalarni joriy etishda va mahsulotlar taklifini diversifikatsiya qilish qilishda yetakchi bo‘ladi

Iqtisodiy taraqqiyotning xususiy sektorlarga bog‘liqligi.

Iqtisodiy taraqqiyot bevosita xususiy sektorlar faoliyatining samaradorligiga bog'liq. Quidagi omillar bunga misol bo‘la oladi:

1. Bozor mexanizmlarining rivoji xususiy sektor raqobatni kuchaytirib, bozor iqtisodiyoti tamoyillarining samarali ishlashini ta'minlaydi.

2. Soliq tushumlar o‘sishi - xususiy sektorlar davlat bujetiga soliq to'lash orqali ishtimoiy sohalarni moliyalashtirishga hissa qo‘shadi.

3. Ekspert salohiyatini oshirish - xususiy korxonalar yangi mahsulotlar ishlab chiqarib, ularni xalqaro bozorlarga chiqara oladi.

Xususiy sektorni rivojlantirishdagi muammolar

Xususiy sektorlarning iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishi uchun ma'lum sharoitlar zarur.

Biroq bir qator muammolar mavjud:

Huquqiy bazanin yetishmasligi, xususiy sektor rivojlanishi uchun qonunchilikning barqarorligi va muhofaza mexanizmlari zarur.

Moliyaviy resurslarga cheklangan kirish ko'plab xususiy korxonalar kapital tanqisligi va yuqori foizli kreditlar sababli o‘shish imkoniyatidan cheklanadi.

Davlatning haddan tashqari aralashuvi xususiy sektor faoliyatiga keraksiz to‘siqlar iqtisodiy samaradorlikni pasaytiradi.

Xususiy sektorlar iqtisodiy taraqqiyotning muhim kampanenti bo‘lib ularning faoliyatini qo'llab- quvvatlash davlatning strategik vazifasidir.



Quidagi choralar bu sohadagi muammolarni hal qilishiga yordam beradi.

1. Huquqiy tartibotni takomillashtirish va xususiy mulkni himoya qilishni kuchaytirish.
2. Xususiy sektorlar uchun imtiyozli kreditlar va moliyaviy ko'mak dasturlarini joriy etish.
3. Davlat xususiy sheriklikni rivojlantirish orqali infratuzilmani yaxshilash.
4. Inavatsiyalarni qo'llab- quvatlash uchun maxsus grantlar va dasturlar yaratish.

Taraqqiyotda xususiy sektorlarni roli:

1. Iqtisodiy rivojlanishga hissa: hususiy sektor investitsiyalarni jalb qilish , yangi ish o'rinlari yaratish va mahsulot hizmatlarini ishlab chiqarishni kengaytirish orqali Iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Masalan kichik va o'rta biznes korxonalar mahalliy Iqtisodiyotning tayanchi bo'lib, aholining daromadini oshiradi.

2. Inavatsiyalarni rivojlantirish.

Xususiy sektorlar bozor talablariga moslashgan holda yangi texnologiyalar va mahsulotlarni joriy etadi. Bu jarayon raqobatni kuchaytirib, umumiy texnologik rivojlanishga zamin yaratadi. Masalan texnologik kompaniyalar yangi dasturlar yoki jihozlarni ishlab chiqib, kundalik hayotni rivojlanishiga zamin yaratadi.

3. Ijtimoiy ma'sulyat : ko'plab xususiy korxonalar ijtimoiy loyihalarga investitsiya qilish orqali jamiyat farovonligiga hizmat qiladi. Bu sog'liqni saqlash ta'lim va ekologik muhofaza sohalaridagi tashabbuslar bo'lishi mumkin.

4. Globallashuv va hamkorlik: xususiy sektorlar xalqaro bozorga chiqib xorijiy tajriba va texnologiyalarni mamlakatga olib kiradi. Bu esa ichki bozorni rivojlantirish bilan birga , halqaro hamkorlikni ham mustahkamlaydi.

Xususiy sektor va davlat hamkorligi.



Xususiy sektorlar va davlat o'rtasidagi muofiqlashtirilgan hamkorlik taraqqiyot uchun zarurdir.

Davlat xususiy sektor uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratib qonuniy asoslarni mustahkamlaydi. Bu esa xususiy sektorning yanada samarali ishlashiga ko'maklashadi.

Termiz shahri Surxondaryo viloyatining iqtisodiy markazi sifatida mintaqaning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shaharda xususiy sektorning iqtisodiyotdagi hissasi yil sayin oshib bormoqda. Savdo hizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, turizm kabi sohalarda faoliyat yuritayotgan xususiy korxonalar nafaqat mahalliy Iqtisodiyotning tayanchi, balki hududning barqaror taraqqiyoti uchun muhim omildir. Termiz shahri savdo va logistika markazi bo'lib, O'zbekistonning Afg'oniston va boshqa qo'shni davlatlar bilan chegaradosh hududida joylashgan. Termiz atrofida joylashgan qishloq xo'jaligi hududlarida xususiy korxonalar paxta, meva sabzavot, g'alla kabi mahsulotlarni yetishtirib, ularni qayta ishlash bilan shug'ullanadi. Masalan qadoqlash va eksport uchun mo'ljallangan mahsulotlarni tayyorlash orqali mintaqqa iqtisodiyoti kuchaymoqda.

Xususiy sektor Termiz shahrida yangi ish o'rinlarini yaratib, aholi bandligini oshiradi. Bu ayniqsa, yoshlar va ayollar uchun iqtisodiy mustaqillik imkoniyatlarini taqdim etadi.

Mavjud muammolar va imkoniyatlar.

Xususiy sektor rivojida bir qator muammolar mavjud, jumladan:

- Kredit olish imkoniyatlaring cheklanganligi.
- Texnologik jihatdan raqobatdoshlikning pastligi.
- Malakali kadrlar yetishmovchiligi.



Shunga qaramay, Termiz shahri xususiy sektor uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu hududning strategik joylashuvi tabiiy resurslari salohiyati va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari. Termiz shahridagi xususiy sektor hududning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. U mahalliy aholini band qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Xususiy sektorning yanada rivojlanishi uchun davlat tomonidan qo'shimcha qo'llab-quvvatlash, moliyaviy resurslar va infratuzilmani yaxshilash choralari ko'rilishi lozim.

Xususiy sektorlar taraqqiyotning ajralmas qismi hisoblanadi. Ular iqtisodiyotni rivojlantirish, yangi imkoniyatlar yaratish va jamiyat farovonligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlik esa uzoq muddatli barqaror rivojlanishning kafolati bo'lib hizmat qiladi. Shu boisdan, mamlakatimizda hususiy sektorlarning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratish strategik ahamiyat kasb etadi.

1. "Tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish" muallif: Bobur Holmurodov

2. "Private sector development and economic growth in transition economies"

Muallif: Iraj Hoshi, Ena Balcerowies

3. Turizm industriyasi: Rivojlanish istiqbollari

Akmal Saidov

4. "Service Management: Operations strategy: and information technology" -

James A. Fitzsimmans